

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНинг НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржонова*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утанов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

ANALYSIS OF "IBRAHIMI ADHAM" STORIES IN TURKISH LITERATURE

Zaripova Dilfuza Bakhtiyorovna

Ministry of Internal Affairs, Bukhara Academic Lyceum, associate professor in philological sciences doctor of philosophy (PhD)

Abstract. This article provides information about stories written about Ibrahim Adham in Turkish literature. The stories about Ibrahim Adham are analyzed in the works "Tazkirat ul-Avliya" by Farididdun Attar, "Nasayim ul-Muhabbat" by Alisher Navoi, "Hayrat ul-Abror" and "Rohati Dil" by Huvaido. The identity of Ibrahim Adham has been revealed. In particular, Huwaydo's unique style of embodying the character of Ibrahim Adham is described. The plots of the above-mentioned stories are compared.

Keywords. A historical-biographical story, mysticism, praise, prayer, prayer, portrait, a perfect person.

TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi, Buxoro akademik litseyi, dotsenti. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy adabiyotda Ibrohim Adham haqida yozilgan qissalar haqida ma'lumot berilgan. Farididdun Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror", Huvaydoning "Rohati dil" asarlarida Ibrohim Adham haqidagi qissalar tahlil qilingan. Ibrohim Adham shaxsi ochib berilgan. Ayniqsa, Huvaydoning Ibrohim Adham obrazini gavdalantirishdagi o'ziga xos uslubi tasvirlangan. Yuqorida tilga olingan qissalar syujeti o'zaro qiyoslangan.

Kalit so'zlar. Tarixiy-biografik qissa, tasavvuf, hamd, na't, munojot, portret, komil inson

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N40>

Kirish. Insoniyat tarixidan ma'lumki, asrlar davomida aqli, tafakkuri jamiyatdan ilgarilab ketgan kishilarga nisbatan har doim bir xil munosabatda bo'linmagan. Ularning xatti-harakati, so'zlari oddiy xalq tomonidan hurmat-ehtirom bilan kutib olingan bo'lsa, davlat boshqaruvini o'z qo'llarida tutgan yuqori tabaqa vakillarining ijtimoiy-siyosiy qarashlariga mos kelmaganligi bois aksariyat hollarda ular quvg'in ostiga olingan.

Tarixiy shaxslarning g'aroyib voqea-hodisalarga boy hayoti, karomatlari, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, yurish-turishi, fe'l-atvori, atrofdagilarga munosabati to'g'risida ma'lum darajada bo'rttirilgan, badiiy ishlov berilgan, haqiqatga asoslangan va badiiyatga yo'g'rilgan hikoyalarning umumlashmasi sifatida keyinchalik "Qissasi Ibrohim Adham", "Qissasi Sayid Nasimiy", "Qissasi Mashrab" kabi badiiy-biografik qissalar maydonga kelgan. Biografik qissalarda qahramon obrazini yaratishda hayotda yashab, xalq xotirasida o'z faoliyati, ijtimoiy-siyosiy fikrlari va g'oyalari bilan iz qoldirgan real shaxslarning siyosi prototip qilib olinib, ijodkor badiiy obrazni hayotiy materiallar asosida yaratadi. Unda

qahramon yashagan davrning ilg'or g'oyalari ifodalaydi, davrning dolzarb muammolarini ko'tarib chiqadi.

Asosiy qism. Ibrohim Adham Olloh ishqi yo'lidagi fidoyilik timsoli. U haqida Fariddun Attorning "Tazkirat ul- avliyo", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul –muhabbat" asarlarida ko'pdan ko'p naql va hikoyatlar berilgan. Jumladan, F.Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida u haqida: "U dunyo va dinning sultoni, imon tog'ining hujjati, ilm-u uzlat ganjinasi, buyuk iqlimning shohi, lutf-u karam pardasi, zamonasining siddiqi, ro'g'or hujjati edi", – deb ta'riflanadi.[1.– B.108]

Navoiy asarida esa: "Mulukdan erkoni xud, mashhurdir. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. Ibrohim Adhamning holati bag'oyat ko'pdir. Bir kitob bitilsa bo'lur", – deb yozadi. [2. –B.78]

"Ibrohim Adham tarixiy shaxs bo'lib, zodagon oilada tig'ilib, puxta bilim olgach, ilohiyot va tasavvuf ilmlari bilan qiziqib, toj-u taxtidan voz kechgan va Olloh yo'lga kirgan mashhur so'fiy edi. Bu tasavvuf tarixidagi noyob hodisalardan biri bo'lib u haqda juda ko'plab rivoyat va hikoyatlar dunyoga kelgan".[3. – B.153]

"Hayrat ul-abror"ning ikkinchi maqolati "Islom bobidakim..." deb boshlanadi. Unda islom dini, musulmonlik, uning shartlari xususida mulohazalar bildiriladi. Ilova tarzda yigirma beshinchi bobda Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat to'liq diniy ruhda. Undagi birinchi bayt Ibrohim Adhamning mansabdan voz kechib, Olloh, fano yo'lini qabul qilgani haqida. Ibrohim Adham bilan Robiya Adviyaning islom yo'lidagi harakatlari o'zaro qiyoslanadi. Ibrohim Adham o'n to'rt yil zahmat chekib, ibodatlarini to'liq bajarib, Ka'ba ziyoratiga keladi. Ammo ne ko'z bilan ko'rsinki, "bayt ul-harom" o'z o'rnida yo'q edi:

*Qoldi bu yo'l qat'ida o'n to'rt yil,
Madhig'a har xor-u giyah chekti til.
Makka tavofig'a chu qildi xirom,
Yo'q edi o'z o'rnida bayt ul-harom*[4. –B.118]

Badiiy adabiyotda Ibrohim Adham, Birohim Adham, Adham tarzida tilga olinadigan bu ulug' zot nomi "Saddi Iskandariy" dostonida ham uchraydi. Dostonning o'ttiz beshinchi bobida Iskandarning Xuroson tomon yurish qilib, Hirotni barpo etishi, Movarounnahrni olib, Samarqandni bunyod qilishi va Kashmirga qarab borishi bayon qilinadi. Shoir Iskandarning Sipohon (Isfahon), Xurosonni egallashi, u yerdagi Hirmand, Nimro'd, Darijaz daryolarining tavsifini berib, Balx mulki haqida gapiradi. Hushangshohning Balxni taxtgoh qilgani, Ibrohim Adham ham shu yerdanligini ta'kidlaydi:

*Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,
Jahondin guzin aylabon taxtgoh.
Maqomi –Birohimi Adham kelib
Ki, gardi rahi charxi a'zam kelib.*[5.–B.235]

Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Ibrohim Adham haqida gapirib, Balxlik ekani, bir kuni ovga chiqib, Hotifning bu ish senga yarashmaydi degan nidosini eshitib, hukmdorlikdan voz kechishi, tariqat yo'lini tutishi, Shomda vafot etgani, bir necha do'stlari bilan faqat halol luqma yeyishga ahd qilganliklarini ta'kidlaydi.

"Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"da Navoiyning islom dini, tasavvuf haqidagi mulohazalari keng bayon qilingan. Ayniqsa, dostonning hamd, munojot, na't qismlari, iymon sharhiga bag'ishlangan birinchi maqolat, islom haqida fikr yuritilgan ikkinchi maqolatda bu borada ko'p gapirilgan. Professor A.Hayitmetovning "Xamsa"da islom nuri" maqolasida bu

qismlar to'liq yoritilgan. Bu kitobda shunday yoziladi: “Dostonning “Ul xoliq hamdikim...” deb boshlangan bob va undan keyin kelgan to'rtta munojot boblari shoir falsafiy va axloqiy dunyoqarashini belgilashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu o'rinlarda Navoiy xudoning tanholigi (“vahdat”) va ulug'vorligini, yer-u osmonni, ulardagi zarradan tortib, quyoshgacha bo'lgan narsalarni bir o'zi yaratganligini, yaratish bilangina cheklanmay, olamda mavjud moddiy va ma'naviy kuchlar o'rtasida o'zaro ziddiyat va kurash yuzaga keltirib, borliqqa rang-baranglik, o'ziga xos ma'no va go'zallik bag'ishlaganini she'riy til va badiiy bo'yoqlar bilan g'oyat jonli, obrazli ifodalashga intiladi.

“Tazkirat ul –avliyo” da keltirilishicha, Ibrohim Adham so'fiylik libosini egniga ilgach, Marvga undan Nishopurga keladi va bir g'orda 9 yil ibodat qiladi. Keyinchalik g'ordan chiqib, 14 yil el kezib, ibodat bilan mashg'ul bo'ladi. So'ng Makkaga borib, Ka'bani ziyorat qiladi. Makkada Fuzayl Ayozi, Sufyon Savriy singari so'fiylar suhbatida bo'ladi. So'ngra Shomga borib, umrining oxirigacha shu yerda yashaydi. “Qissayi Ibrohim Adham”da Ibrohimning dasht-u biyobonlarga yuz tutib ketganligi qayd etilib, uning e'tiqodda sobitligi va karomatli insonligi qator lavhalarda aks ettirilgan: vazirlari Temurxon va Sarafroz sultonni tanlagan yo'lidan qaytarmoqchi bo'lganlarida u daryoga igna tashlab, dastlabki karomatini zohir qiladi: Ibrohim karvon bilan ketayotganida shayton bilan aytishib, g'olib chiqadi; hojilar bilan Ka'bani ziyorat qilgani borayotganlarida, bir-birlarining hollarini anglatish maqsadida karomat ko'rsatadilar va ular ichidan Ibrohimning karomati ziyoda bo'ladi; u Ka'bani, so'ng Madinada payg'ambar qabrini ziyorat qiladi”. [6.–B.47]

Endi Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasi tahliliga to'xtalsak. Huvaydo iste'dodli mutasavvif shoir, ijodkor mutafakkir din arbobi, avom xalqning rahnamosi sifatida jamiyat va xalq manfaatlarini muqaddas deb biladigan, Haq va xalqqa sadoqatli komil inson shaxsini shakllantirish uchun haqparast emas, balki dunyoparast bo'lib borayotgan jamiyatning yuqori qatlami – ahli xoslar (mullolar, xojalar, mansabdorlar o'rtasida Ollohning yo'lida toj-u taxtidan voz kechgan va darveshlik yo'lini tanlagan Ibrohim Adham singari so'fiylar himmati va mardligini ibrat qilib ko'rsatdi. Oddiy avom o'rtasida esa islom dini g'oyalari keng targ'ib etishga intildi. O'zi yashab turgan davr xususiyatlaridan kelib chiqib, ayni bir vaqtda ham diniy, ham tasavvufiy g'oyalarni rivojlantirishga, tasavvufning malomatiya, qodiriya, kubroviya singari tariqatlari g'oyalari uyg'unlashtirishga, ham majoziy, ham ilohiy ishqni ulug'lashga, bu dunyodagi xayrli, savobli amallar uchun narigi dunyoda beriladigan mukofotlar evaziga bu dunyo muammolarini oqilona hal etishga umid bog'ladi.

“Rohati dil”– diniy-didaktik asar. Unda islom va tasavvuf ta'limotining umuminsoniy g'oyalari, axloq masalalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etiladi.

“Ibrohim Adham” da'vati Xo'janazar Xuvaydoning yirik asaridir. Uning ko'plab qo'lyozma va toshbosma nusxalari respublikamiz institutlari fondlarida saqlanmoqda.

Adib ilgari surgan, aytmoqchi bo'lgan fikrlarning eng yuqori cho'qqisi Ibrohim Adham qissasida mujassamlashgan. Undagi mazmun sayyor syujetga asoslangan. “Ibrohim Adham hikoyati”da behad mol-dunyoga ega bo'lgan, boylik, toj-u taxt, rohat-farog'atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo'lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi. O'zbek mumtoz adabiyotida bu mavzuni yorituvchi ko'p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu an'anaviy hikoyatni o'ziga xos uslubda yangi tuyg'u va kechinmalar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqali ifodalashga erishgan. Unda faqat Ibrohim Adham emas, balki bir qancha timsollar ishtirok etgan. Ayoli

Zulhayo va o'g'lining ham ichki iztiroblari tasvirga olingan. Qisqa satrlar orqali bo'lsa-da, cho'pon va tuyakash timsollari ham o'z chizgilariga ega.

Huvaydoning "Ibrohim Adham" qissasidagi cho'pon va tuyakash obrazlari Quraysining "Risola"sidagi voqealar xulosasiga o'xshab ketadi. Qissa qahramonlarining tabiati ularning o'z so'zlari, dunyoqarash va hayotiy falsafalari vositasida yoritib berilgan. Jumladan, quyidagi bir bayt Ibrohim Adham tutgan maqom haqida tasavvur bera oladi:

*Seni deb tax-tu baxtimni kechibman,
Ki, men vahdat sharobidin ichibman.*

Insoniyatni loqaydlik, jaholat, g'aflat tanazzulga yetaklaydi. Ezguliklardan yiroqlashtiradi. Ma'naviy qashshoqlikka mahkum etadi. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilishgan. Zamondoshlari uchun kamolot va ma'naviyat yo'lini ko'rsatishgan. Jumladan, Xo'janazar Huvaydoning masnaviy yo'lida yozilgan "Rohati dil" dostonini va "Ibrohim Adham" qissasi o'z muallifining dostonnavislik salohiyatidan darak beruvchi yodgorlik bo'lib, shoirning o'zbek mumtoz pandnomasi xazinasiga qo'shgan munosib hissasidir. Ushbu doston xalq orasida mashhur. U Huvaydo she'rlaridagi mazmun va g'oyani to'ldiradi, teranlashtiradi. Huvaydo merosiga mansub "Ibrohim Adham" qissasi tasavvufiy ruhdagi asardir. Bu so'zlardan Olloh yodi uchun taxt-u baxtidan voz kechgan, ilohiy birlikka musharraf bo'lgan muqaddas oshiq ma'naviyatini anglash mumkin. Qissa so'ngida shoir tomonidan keltirilgan bir g'azal Ibrohim Adham faoliyatining mazmun-mohiyatini yaqqol sharhlovchi xulosa vazifasini bajara oladi:

Dunyoni tark qiluvchi uqbog'ayuz urg'on kishi,
Jannat ila hurni netar mavlo yuzin ko'rgan kishi.
Kim bexabardur Mavlodin mag'rur erur dunyoyig'a,
Dunyoning mulkin naylasin ondin xabar olg'on kishi.
Fagfuri Qaysar mulkni boshig'a ursunmi oni,
Netsun Sulaymon taxtini ishq taxtiga mingan kishi.

Ushbu qissa Huvaydoning "Rohati dil" dostoni oldiga qo'yilgan muhim vazifa, ya'ni komil inson tarbiyasi uchun xizmat qilgan. Butun Sharq mumtoz adabiyotida ibratli, haqiqiy oshiq bo'lib kelgan Ibrohim Adham timsolining qayta yaralishi "Rohati dil"ning ahamiyatini yanada oshiradi.

XULOSA. Biz quyidagi jadvalda syujet jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan Ibrohim Adham haqidagi asarlarning ba'zilarini qiyoslaymiz:

№	Asar nomi	O'xshashlik tomonlari	Farqli tomonlari
1.	"Tazkirat ul-avliyo" (Abdurahmon Jomiy)	1. Diniy mavzuda 2. 14 yil sahro kezishi	1. Ibrohim Adham 9 yil ibodat bilan shug'ullanadi 2. Fuzayl Ayoq va Sufyon Savriy kabi so'fiylar suhbatida bo'ladi 3. Ibrohim Adham ta'rifi: "U dunyo va dinning sultoni, imon tog'ining hujjati, ilm-u uzlat ganjinasi, buyuk iqlimning shohi,

			<i>lutf-u karam pardasi, zamonasining siddiqi, ro'g'or hujjati edi.</i>
2.	“Hayrat ul-abror” (Alisher Navoiy)	1.Diniy mavzuda 2. 14 yil sahro kezishi 3.Robiyayi Adviya obrazi bor	Ibrohim Adham ta'rifi: <i>“Mulukdan erkoni xud, mashhurdir. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. Ibrohim Adhamning holati bag'oyat ko'pdir. Bir kitob bitilsa bo'lur”.</i>
3.	“Qissayi Ibrohim Adham”	1.Diniy mavzuda 2.14 yil sahro kezishi	1.Ibrohim Adhamning vazirlari-Temurxon va Sarafroz obrazlari tasvirlanadi 2. Ibrohim Adhamning daryoga igna tashlab karomat qilishi haqida yozilgan 3. Ibrohim Adhamning turmush o'rtog'i-Bibi Zulfiya va o'g'li-Muhammad obrazi mavjud 4. Ibrohim Adham ta'rifi (portret): <i>“Ey o'g'lim, otang uzun bo'ylug' va qizil yuzlug' va shirin so'zluk, qora soqollik va ustida eski qaro chakman, og'zida kalimayi tayyiba va kalimayi tavid va tilida zikr-u tasbeh, hamd-u sano, bosh yalang va oyoq yalang biyobonga borib o'tun olib kelur ermish va ani uch yarmoqg'a sotur ermish va ani bir yarmoqin yetimlarga va bir yarmoqin tul zaifalarga va bir yarmoqin o'ziga qutu loyamat uchun sarf qilib, boz o'z vayronasiga</i>

			borur ermish”.(“Qissasi Ibrohim Adham”, 58)
4.	“Ibrohim Adham” (Huvaydo)	1. Diniy mavzuda 2. Robiyayi Adviya obrazi bor	1. Cho‘pon va tuyakash obrazi orqali Ibrohim Adham shaxsiyati yanada yorqinroq tasvirlanadi. 2. It obrazi Robiyayi Adviya shaxsini ochib berishga xizmat qilgan. 2. Ibrohim Adhamning turmush o‘rtog‘i- Zulhayo va o‘g‘li –Muhammad obrazi mavjud. 3. Ibrohimning otasi Adham go‘rkov sifatida tasvirlanadi. 4. Ibrohim Adham ta‘rifi (portret): “Uzun bo‘ylik, qizil yuzlik, siyah resh, Shirin so‘zlik kelur bir mardi darvesh, Yurar sarmo barahna egnida shol, Tilida zikri tasbeh doyim-ul hol Namoz o‘qur dugona har qadamda, Xudog‘a shukr aytubon dam –badamda”.(Rohati dil, 104)

“Ibrohim Adham” qissasini o‘rganishda uning shakllanish tarixini bilish muhim ahamiyatga ega. Poetik o‘zlashtirish hodisasi orqali “Ibrohim Adham” syujetlari asrlar osha badiiy-didaktik adabiyotning muhim mavzularidan biriga aylangan.

An‘anaviy obrazlarda xos xususiyatlardan biri bu ularning Qur‘on va Islom dini bilan bog‘liqligidir. Ba‘zi o‘zini musulmon atagan insonlar borki, ularning shom-u sahar qilayotgan zikrlari ham behuda dod-u voydir. Aslida haqiqiy mo‘minning amallari bunday bo‘lmaydi. Ibrohim Adham obrazi orqali aynan shu missiya bajarilgan.

Dunyoga mashhur bo‘lgan mazkur qissaning turkiy adabiyotdagi o‘rni muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bunda F. Attor, Rumi, Navoiy, Huvaydo ijodi yorqin misol bo‘la oladi. Ularda insonning falsafiy dunyoqarashi, yaratuvchiga bo‘lgan eng nozik dil tuyg‘ulari, qolaversa, iymondagi sobitlik, toat-ibodat, halollik, rostgo‘ylik, poklik kabi eng yaxshi insoniy xislatlar ulug‘langan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. —Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2012. – В. 108.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 15-tom. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1968. – В. 78.
3. Ro‘zmatzoda Q. Huvaydo va tasavvuf. //Sino. – Toshkent: 2011. №43-44. – В.153.
4. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Yuldosheva S.A. Badiiy –biogrfaik qissalar poetikasi.(Qissasi Ibrohim Adham”, Qissasi Sayid Nasimiy”, “Qissayi Mashrab” asarlari asosida)//diss. 2012. –В. 47.
7. Jumaxo‘ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII-XIX asrlar o‘zbek shariyati asosida)F.f.dok.dis...Toshkent, 1999. –В.220.
8. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. –Т.:1975.
9. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. –Т.: Fan.1961.
10. Qur‘oni Karim. Alouddin Mansur tarjimas. –Т.: Cho‘lpon.1992. –В.197.
11. Zaripova D.B. Didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili. Monografiya. –Buxoro. Durdon. 2022. –В.76
12. С.Бобоколонов. Хожа Исмат ва туркийгўй замондошлари шеърятининг жанрлари, услуби, бадиияти. Фил.фан.ном. дисс. – Бухоро. 2012. – 195 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).